

TUMAN HOKIMI NAVBATDAGI FUQAROLAR QABULINI O'TKAZDI

Bugun Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev aholi vakillarini qabul qildi.

Qabulda tumandagi barcha tashkilotlardan vakillar ishtirok etishdi. Unda tumanning turli manzillaridan kelgan fuqarolar murojaatlari tinglandi. Fuqarolarning murojaatlarini batafsil o'rganib chiqish, qonun doirasida ijobjiy hal etish yuzasidan tegishli tashkilotlarga topshiriqlar berildi.

Qabul davomida 20 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 5 ta murojaat joyning o'zida ijobjiy hal etildi. 2 nafar fuqaroga moddiy yordam ajratish belgilanib, qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 3 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, qabul so'ngida tuman hokimi kunlik va sayyor qabullar davomida qabul qilingan murojaatlarning ijobjiy hal etilish darajasini ham muhokama qildi. Belgilangan muddatda ijro etmagan, murojaatlarni ijobjiy hal etilishiga befarq bo'lgan mas'ullarga ogohlantirishlar berildi.

2023-12-12 15:44:38